

TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING QAROR TOPISHI VA IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYATNING O'ZGARISHI

Katta o'qituvchi

Abdimuradov Jahongir Zayniddin o'g'li

Perfect-university pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Orcid id <https://orcid.org/0009-0002-4678-7470>, Tel.: +99888-038-42-42,

e-mail: johongirabdumurodov7@gmail.com

Safaraliyev Abbasxon Asqarali o'g'li

MV TOQQQ Nurobod harbiy qism Madaniyat markazi boshlig'i

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix

Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99891 001-99-77,

e-mail: abbosxonsafarov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 1917-yilgi Fevral va Oktyabr inqiloblaridan so'ng Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi jarayoni, bu jarayonning mahalliy ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri, aholining munosabati hamda milliy ozodlik harakatlarining faollashuvi yoritilgan. Maqolada Turkiston Muxtoriyati misolida mustamlakachilik siyosatiga qarshi vujudga kelgan ilk siyosiy tajriba va uning fojiali yakuni tahlil etiladi. Shuningdek, Sovet hokimiyatining zo'ravonlik bilan qaror topgani, islomiy qadriyatlarga qarshi yuritilgan repressiv choralarning mahalliy aholida norozilik ruhini kuchaytirgani tarixiy manbalar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot davomida sovetlar rejimi tomonidan muxtoriyat g'oyasining bostirilishi va buning oqibatida bosmachilik harakatining shakllanishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, Sovet hokimiyati, muxtoriyat, jadidlar, Fevral inqilobi, Oktyabr to'ntarishi, Turkiston Muxtoriyati, bolsheviklar, ijtimoiy-siyosiy holat, milliy ozodlik harakati, bosmachilik, repressiyalar, diniy qadriyatlar*

УСТАНОВЛЕНИЕ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРКЕСТАНЕ И ИЗМЕНЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ

Аннотация. *В данной статье освещаются процессы установления Советской власти в Туркестане после Февральской и Октябрьской революций 1917 года, влияние этих событий на социально-политическую жизнь региона, отношение местного населения и активизация национально-освободительного движения. На примере Туркестанской автономии проанализирован первый опыт политического самоуправления, возникший в противовес колониальной политике, и его трагический конец. Также показано, как насильственное утверждение Советской власти и репрессивные меры против исламских ценностей усилили недовольство среди местного населения. Особое внимание уделено ликвидации идеи автономии*

советским режимом и возникновению басмаческого движения как ответной реакции.

Ключевые слова: Туркестан, Советская власть, автономия, джадиды, Февральская революция, Октябрьский переворот, Туркестанская автономия, большевики, социально-политическая ситуация, национально-освободительное движение, басмаческое движение, репрессии, исламские ценности.

THE ESTABLISHMENT OF SOVIET POWER IN TURKESTAN AND THE TRANSFORMATION OF THE SOCIO-POLITICAL LANDSCAPE

Abstract. *This article explores the establishment of Soviet power in Turkestan following the February and October revolutions of 1917, its impact on the region's socio-political life, public reaction, and the intensification of the national liberation movement. The Turkestan Autonomy is examined as an early political experiment that emerged in opposition to colonial rule, along with the analysis of its tragic end. The article further reveals how the violent enforcement of Soviet authority and repressive measures against Islamic values fueled discontent among the local population. Special attention is given to the suppression of autonomy by the Soviet regime and the subsequent rise of the Basmachi movement as a form of resistance.*

Keywords: *Turkestan, Soviet power, autonomy, Jadids, February Revolution, October coup, Turkestan Autonomy, Bolsheviks, socio-political situation, national liberation movement, Basmachi movement, repressions, Islamic values.*

Kirish. XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining ichki siyosiy beqarorligi, sanoat va agrar inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, xalq noroziligining ortib borishi kabi omillar inqilobiy harakatlarning kuchayishiga zamin yaratdi. 1917-yilda sodir bo'lgan Fevral va Oktyabr inqiloblari butun imperiya hududlarida tub siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, bu inqiloblar Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Fevral inqilobi natijasida Romanovlar sulolasining taxtdan chetlatilishi, muvaqqat hukumatning tuzilishi va uning ichki siyosiy zaifligi Turkistonda milliy ozodlik harakatlarning jonlanishiga turtki bo'ldi.

Turkiston jadidlari bu davrni milliy mustaqillik sari intilish yo'lida tarixiy imkoniyat sifatida qarshiladilar. Natijada, 1917-yil noyabr oyida Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi. Biroq, sovetlarning kuchayib borayotgan bosimi, bolsheviklar tomonidan zo'rvonlik va siyosiy repressiyalar orqali hokimiyatni qo'lga olish siyosati ushbu milliy harakatni qisqa fursat ichida bostirishga sabab bo'ldi.

Asosiy xulosa. 1917-yilning fevral oyida Rossiyada sodir bo'lgan o'zgarishlar Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Jiddiy o'zgarishlar vaqti kelganini anglagan mintaqa taraqqiyparvarlari milliy ozodlik uchun ijtimoiy-siyosiy vaziyat kelganligini tushunib yetdilar va harakatni boshladilar. Nafaqat taraqqiyparvarlar balki endi, siyosatdan

uzoqda bo'lgan insonlar ham Rossiya imperiyasi Romanovlar sulolasining taxtdan ketishida bir ilinj ko'rgandi. Turkistonda milliy-ozodlik harakati yo'lidagi turli xil qo'mitalar, tashkilotlar va siyosiy partiyalar tuzila boshladi. Turkiston aholisi va ziyolilarining maqsadlari yo'lida birlashib federatsiya asosida muxtoriyat sari intilmoqda edilar.

Bugungi kunda "Muxtoriyat" masalasi turlicha talqin qilinadi. Shu o'rinda tarixchi ustozimiz professor Q.Rajabovning quyidagi fikrlari o'rinli: "Muxtoriyat atamasi atamasi arabcha so'z bo'lib, o'zbekchada "ixtiori o'zida", "o'z ixtiori bilan qaror qabul qilish huquqiga ega" ma'nosini anglatadi. Demak uni ruscha "avtonomiya" bilan bir xil ma'noda qo'llash kerak emas. Negaki u muayyan bir davlat doirasida beriladigan ma'muriy, milliy doiralardagi o'zini-o'zi boshqarishni bildiradi. Turkiston jadidlari esa XX asr boshlarida muxtoriyatchilik harakatiga mustaqil davlat tuzish yo'lidagi alohida bosqich sifatida qaraganlar va bu yo'lda kurashganlar"¹¹³.

Turkistonda ishchi va soldat deputatlari sovetlarining butun tashkil topishi 1917 yilning mart oyida sodir bo'ldi. Ammo ularning tarkibi asosan Yevropa millatiga mansub ekanligi, ularning dini, turmush tarzi mahalliy aholi hayotidan farq qilishi mahalliy aholining, ularning g'oyalarini qo'llamasligiga va ularning ortidan ergashmasligiga olib keldi. Mahalliy tub yerli aholi ulamolar va jadidlarning ortidan ergashdilar. Bunday vaziyatda albatta siyosiy tashkilot zarur edi va bu siyosiy tashkilotlardan birinchilardan bo'lib "Sho'royi Islomiya" tashkil etildi.

1917 yil 14 martda "Sho'royi Islomiya"ning majlisi Toshkentda bo'lib o'tdi. Unda tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi 15 kishidan iborat rayosat saylandi. Rayosatni jadidlarning rahbarlaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov boshqardi¹¹⁴. "Sho'royi Islomiya"ning tashabbusi bilan 1917 yilning aprel oyida Umumturkiston musulmonlarning birinchi qurultoyi tashkil etildi, kun tartibidagi masalalar Turkiston muxtoriyati uchun qo'yilgan ilk qadamlar biri bo'ldi.

1917 yilgi fevral inqilobi Rossiyada tub o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelmadi. Buning boisi shundaki, Muvaqqat burjua hukumati o'zining tor, xudbin manfaatlari doirasidan chetga chiqa olmay, yetilgan tub masalalarni hal etishga ojizlik qildi. Natijada siyosiy tuzumda o'zgarish bo'lgani holda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari amalda yechilmay qola berdi. Bu esa mamlakat hayotining yanada boshi berk ko'chaga kirib, tanglik, tanazullik holatlarining kuchayib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtirokining davom etishi, rus armiyasining frontda ketma-ket mag'lubiyatga uchrayotganligi umumxalq noroziligi va qahr-g'azabini tobora kuchaytirmoqda edi. Negaki, urushning butun og'irligi xalq ommasining zimmasiga tushayotgandi. Rossiyaning iqtisodiy halokat tomon borishi, ijtimoiy tanglik va inqirozi jarayonlarning zo'rayishi esa Muvaqqat hukumatning tobora obro'sizlanishiga, xalqdan yakkalanib qolishiga, oqibatda esa vaziyatning keskinlashuviga olib kelayotgan edi. Lenin boshliq bolsheviklar xuddi mana shu qaltis vaziyatdan ustomonlik bilan foydalanib, ommani

¹¹³ Q.Rajabov. Turkiston qo'rboshilari. – Toshkent: "Fan", 2022. –B.14

¹¹⁴ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov . Vatan tarix III kitob. – Toshkent: "Sharq", 2010. –B.14.

o‘z tomoniga ag‘darishni ko‘zlovchi g‘oyalarni ilgari surib, siyosiy hokimiyatni egallash sari yo‘l tutdi. Bolsheviklar o‘z maqsadlariga erishishda xalqning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldiruvchi va‘dalar berdilar. Ular ommabop chaqiriqlarni ilgari surib, barcha muhim masalalarni hal etishga qasamyod qildilar. Mana shunday ustakorlik va hiylakorlik yo‘li bilan bolsheviklar 1917 yilning 24-25 oktabr kunlari Petrogradga davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Ular Muvaqqat hukumatni ag‘darib, hokimiyatni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Tez orada mamlakatning boshqa hududlarida ham ularning hukmronligi o‘rnatila boshlandi. Shu tariqa, “proletariat diktaturasi” nomi bilan atalgan sovet hokimiyati vujudga keldi¹¹⁵.

1917 yil oktabr oyida Toshkent Soveti soldatlarni o‘z tomoniga og‘dira boshladi, asli rossiyalik bo‘lgan ishchilar ham unga ergashdi. Toshkentdagi Oktabr to‘ntarishi qatnashchilari 1-noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Komitetini qamoqqa oldilar. Shu kuni Toshkent Soveti Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganligini e‘lon qildi. 1917 yil 1 noyabrda sovetlar Yangi Termiz va Kattaqo‘rg‘onda, 25 noyabrda Yangi Buxoro (Kogon)da, 28 noyabrda Samarqandda, 7 dekabrda Namanganda hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi¹¹⁶.

Rossiyada sodir bo‘lgan oktabr to‘ntarishi va o‘zgarishlar o‘z ta‘sirini Turkistonga ham o‘tkazmasdan qolmadi. Bu vaqtda Turkiston Rossiya tarkibida bo‘lganligi, Markaz voqealarining bu hududda ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatishini anglatardi. Hokimiyatni egallagan bolsheviklar ham Turkiston naqadar muhim ekanligi anglar edilar, shu sababli ham Turkistonni qo‘ldan boy bermaslik uchun kurashishlari aniq edi. Turkistonda Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi onson kechmadi, chunki oktabr o‘zgarishlari va ularning g‘oyalari Turkistonda yashab kelgan tub aholining yashash tarzi, urf-odatlariga umuman to‘g‘ri kelmas edi. Birgina sotsialistik g‘oyalarning bir ko‘rinishi bo‘lgan mulklarni birlashtirish, milliyalashtirish tub aholining xo‘jalik hayotini tubdan o‘zgarishiga olib kelardi. Shu sababli ham bu o‘zgarishlarga norozilik kayfiyati paydo bo‘la boshladi. Natijada sovetlar hokimiyatini istamagan, ular tarafiga o‘tishni xohlamaganlar uchun butun o‘lka bo‘ylab tazyiq va zo‘ravonliklar avj oldi.

Turkiston aholisining ham jismoniy ham ma‘naviy kamsitishi oddiy tusga kirgan edi. Diniy e‘tiqodlar va islomiy qadriyatlar esa sovetlarning eng katta dushmani bo‘lgandi. Shu sababli ham muqaddas qadamjolarini haqoratlash, diniy kitoblarni gulxanda yondirish kabi insoniyatning butun tuyg‘ularini junbishga keltiruvchi voqealar kundalik hayotning bir bo‘lagi bo‘lib qolgandi.

Mana shunday zo‘ravonliklar ostida qaror topayotgan sovet hokimiyatining o‘rnatilishi chog‘ida Marg‘ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming, Bozorqo‘rg‘on va Qo‘qonqishloq(hozirgi Paxtaobod tumani) atroflarida 4,5 mingdan ziyod begunoh kishilar qirg‘in qilingan¹¹⁷. Bu voqealarning hammasi tezroq musulmonlar bemalol

¹¹⁵ Q.Usmonov, M.Sodiqov. O‘zbekiston tarixi (1917—1991 yillar). – Toshkent: “Sharq”, 2010. –B.17.

¹¹⁶ X.Ш.Иноят. Победа Советской власти в Узбекистане. Т. 1967.

¹¹⁷ Q.Usmonov, M.Sodiqov. O‘zbekiston tarixi (1917—1991 yillar). – Toshkent: “Sharq”, 2010. –B.19.

yashaydigan o'z dini, o'z iqtisodiyoti, o'z hukumati va millat uchun ishlaydigan qonunlari mavjud bo'lgan milliy davlat tuzishga undadi.

1917 yil 15 noyabrda Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetlari Ijroiya Komiteti go'yoki milliy harbiy qismlarni tuzish demokratiyaga zidligi hamda musulmon askarlarining bu bo'limlarni tugatish to'g'risida o'zlari murojaat qilganliklarini bahona qilib, musulmon batalonini tarqatib yuborish haqida qaror chiqardi. Xullas, bolsheviklarning faoliyati milliy tashkilotlarning vakillarini talvasaga solib, g'azabini qo'zg'atdi. Keyinchalik Mustafo Cho'qayning eslashicha, ularning ko'pchiligi "Turkistonni Rossiyadan ajratishni yoki hech bo'lmaganda zudlik bilan muxtoriyat e'lon qilinishini"¹¹⁸ taklif qilib chiqishdi. "Sho'roi Islomiya" yetakchilaridan biri Munavvar Qori Abdurashidxonovning 1917 yilning martida aytgan **"Ozodlik berilmas, olinur"** fikri o'sha kunlarning shioriga aylandi. Bu tashkilotlar va Milliy Markazning faollari dastlab Toshkentdan Samarqandga, so'ngra Qo'qon shahriga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi. U yerdan esa Turkistonning barcha yirik shaharlariga yangicha sharoitda umumiy ishlarni muvofiqlashtirish uchun o'z vakillarini yubordi. Mustafo Cho'qay, Ubaydulla Xo'jayev, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Shoislom Shoahmedov, Nosirxon To'ra, Xidoyatbek Yurali Agayev va boshqalar Turkiston O'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyini Qo'qonda chaqirish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborishdi.

1917 yil 26 noyabrda Qo'qon shahrida O'lka musulmonlarining IV favqulodda syezdi ish boshladi. Unda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil hozir bo'ldi. Kun tartibiga o'lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash, Turkiston Ta'sis majlisi, militsiya, moliya va boshqa masalalar qo'yildi.

Mandat komissiyasining a'zosi T.Norbo'tabekov syezd qatnashchilarining tarkibi haqida axborot berdi. Bunga ko'ra syezdda Farg'onadan — 100, Sirdaryodan — 22, Samarqanddan — 21, Buxorodan — 4 va Kaspiyortidan — 1 vakil qatnashayotgan edi. Shuningdek, viloyat vakillaridan tashqari syezdda "Sho'roi Islom", "Sho'roi Ulamo", musulmon harbiylari kengashi, O'lka yahudiylar jamiyati, mahalliy yahudiylar vakillari qatnashdilar¹¹⁹. Maxmudxo'ja Behbudiy o'z chiqishida syezdning huquqiy jihatdan qonuniyligi haqida shunday degandi: "Syezd qarorlari shuning uchun ham katta mavzega sazovorki, unda Turkistonning ovrupolik aholisi vakillari ham qatnashmoqda". M.Behbudiyning ta'kidlashicha, Hay'atni shunday tuzish kerakki, unga turli musulmon guruhlari bilan birga rus, yahudiy va boshqa xalqlarning vakillari kiritilsin. Syezdda qatnashayotgan vakillar bu fikrni qo'llab-quvvatladilar. So'zga chiqqan qo'qonlik vakil O.Maxmudov "Hay'atni saylashda viloyatlar bo'yicha emas, balki alohida diniy qarashlar va milliy guruhlarni hisobga olgan holda, ya'ni bilimdon, o'quvli va g'ayratli kishilarni tanlab

¹¹⁸ **Mustafo Cho'qay o'g'li.** Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). Nashrga tayyorlovchi — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992. —B.47.

¹¹⁹ "Ulug' Turkiston" 1917 yil 8 dekabr.

olish kerak”, deb alohida ta’kidladi¹²⁰. Muhokamadan keyin 13 kishidan iborat hay’at saylashga kelishib olindi. Syezdda uch kunlik munozaradan so’ng vakillar Turkistonning bo’lg’usi siyosiy tuzumi to’g’risida qat’iy bir fikrga yakdillik bilan kelishib oldilar. 1917 yil 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorda, jumladan, shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o’z huquqlarini o’zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta’sis majlisiga havola etadi”. Shundan keyin syezd Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e’lon qiladi.

1917 yil 26 noyabrda tashkil topgan mazkur davlatning nomi “Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo’ldi. Hokimiyatni esa Ta’sis syezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston halq (Milliy) Majlisi qo’lida bo’lishi ta’kidlandi. Shuningdek, syezdda Muvaqqat Kengash tarkibiga kishidan iborat a’zolar saylash taklif etildi. Xalq majlisi tarkibiga saylanadigan 54 o’rindan 18 o’rin o’lkadagi turli yevropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi. Bu esa uchdan bir o’rin yevropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi¹²¹.

Turkiston Muxtoriyati e’lon qilinganligini nafaqat Qo’qon shahri aholisi balki butun Turkiston aholisini quvontirdi, umidlantirdi, ko’tarinki ruh berdi. 1917 yil dekabr oyida Toshkent, Qo’qon, Samarqand, Namangan, Jalolobod shaharlarida va boshqa hududlarda ko’plab namoyishlar uyushtirib, muxtoriyatni qo’llab-quvvatlab chiqqanlar ko’pchilikni tashkil etar edi. Jumladan, Toshkentning eski shahar qismida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligiga bag’ishlab ko’p ming kishilik katta yig’ilish o’tkazildi. Unda Turkiston taraqqiyparvarlaridan bo’lgan Munavvar qori, Pirmuhammad A’lam, Mullo Odil mufti, Said G’anixon so’zga chiqib, to’planganlarni Turkiston Muxtoriyati tashkil etilganligi bilan qutladilar. Turkiston Muxtoriyati, erishilgan yuksak g’alaba, endilikdagi istiqboli kunlar uchun kurash olib borish kerakligi haqida, o’sha davr milliy matbuotida ko’plab maqolalar orqali e’lon qilindi.

Xususan, “Hurriyat” gazetasining 1917 yil 5 dekabr sonida Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri bo’lgan Fitrat tomonidan quyidagi maqola bosib chiqarilgan edi: “Turkiston turkni qonini qaynaguvchi, imonini yuksaltguvchi bir quvvat bor esa yolg’iz shu so’zda bordur. Turkiston Muxtoriyati. Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo’limiz bog’landi, tilimiz kesildi, og’zimiz qopondi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumurildi, nomusimiz xasb qilindi, huquqimizga tajavuzlar bo’ldi, insonligimiz oyog’lar ostig’a olindi. To’zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har qanday buyrug’ga bo’ysundik, butun borlig’imizni qo’ldan berdik. Yolg’iz bir fikrni bermadik yashunturdik, imonlarimizga avrab saqladik. Turkiston Muxtoriyati!”¹²².

¹²⁰ “Туркестанский вестник”. 1917 г. 9 декабря.

¹²¹ Q.Rajabov. Turkiston muxtoriyati tarixi. - Toshkent. “Fan”, 2023. –B.102.

¹²² “Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 9-fevral, 7-son.

Turkistonning erksevar xalqi bunday chorlovlardan qanchalik kuch olib oldinga qarab intilib, o'z milliy hukumatini qo'llab-quvvatlamasin, buni uzoq vaqtdan beri Turkistonga joylashib olgan sovet hukumati sokinlik bilan qabul qilmas va allaqachon muxtoriyatni yo'q qilish uchun harakatlarni boshlab yuborgan edi. Shunday harakatlardan biri 1917 yil 13 dekabrda Toshkent shahrida Turkiston muxtoriyatni qo'llab o'tkazilgan yig'ilishlardan birini zo'rlik bilan tarqatib yuborilishida ko'zga tashlandi. Bu voqea Turkiston Muxtoriyati uchun uyushtirilgan ilk hujum edi. Hukmronlikni o'z qo'lidan boy berishni istamagan Markaz va uning Turkistondagi vakolatli shaxslari Turkiston xalqining istagi bilan tashkil topgan qonuniy muxtoriyat hokimiyatini zo'ravonlik bilan ag'darib tashlashni maqsad qildilar. O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun sovetlar hokimiyati qo'l ostida bo'lgan barcha zarur vositalarni ishga solishga tayyor edilar va shunday ham qildilar. Buning sabablari ko'p edi, Turkiston Muxtoriyati boshlanishi ekanligini ular bilardilar va shu uchun ham bu ozodlik ruhi keng quloch yoymasdan uni to'xtatish choralarini ko'ra boshlashdi. Bunday xavfsirash sabablaridan biri sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan tayyorlanib Turkiston Muxtoriyati nomidan Markazga jo'natilgan "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasida ko'rish mumkin: "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi hajmi 25 moddadan iborat. Ushbu loyihaning 1-moddasidan 17-moddasigacha Chor Rossiyasi hukmi ostidagi ishlarga tegishli bo'lsa, 18-25-moddalarida esa keng miqyosda erkinlik va siyosiy muxtoriyat talab qilingan"¹²³.

Shunday holatda Turkiston Muxtoriyatidan qutilishni istagan Markaz uchun yana bir yutuq bu, muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim masalalarda birlik, hamjihatlik, jipslik mavjud emasligi edi.

O'lkada o'rnashib olgan bolsheviklar Turkiston Muxtoriyati hukumatini o'zlariga katta xavf deb bilganlar. Shuning uchun ham, Turkiston o'lkasi ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining 1918 yil 19-26 yanvarda Toshkentda bo'lgan favqulodda IV syezdida muxtoriyat hukumatiga munosabat masalasi asosiy masala sanalgan edi. Qurultoy Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holda deb hisoblab, hattoki, vazirlarni qamoqqa olish haqida qaror qabul qilingan. 1918 yil 30 yanvardan Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti Turkiston Muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshlab yubordi¹²⁴.

Milliy matbuotning yozishicha, 1918 yil 31 yanvarda (yangi hisob bo'yicha 13 fevralda) janglar boshlandi. Bolsheviklar tomonidan Skobelov (hozirgi Farg'ona), Andijon, keyinchalik Perovsk (hozirgi Qizil O'rda) shaharlaridan 200 nafardan ortiq askarlar Qo'qonga tashlandi. Skobelyevdan kelgan harbiy otryadga Osipov rahbarlik qilgan¹²⁵.

Qo'qon shahrida bolsheviklar musulmon xalqlarni qirib tashlashdan iborat dahshatli fojeani boshlab yubordi. Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari soveti Turkiston Muxtoriyatiga chetdan keladigan har qanday yordamning oldini olish choralarini ko'rdi. 1918 yil 14 fevralda

¹²³ "Jadid" adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 23-fevral, 9-son.

¹²⁴ Q.Rajabov. Turkiston muxtoriyati tarixi. – Toshkent: "Fan", 2023. – 127-bet.

¹²⁵ Q.Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda milliy majlis a'zolari hayoti va taqdiri. –Toshkent: "Bodomzor invest", 2021. –B.15.

1918 yil 22 fevralda Qo'qon shahrini Qizil armiya qurolli otryadlari (ular asosan qizil gvardiyachilar, dashnoq drujinalari va boshqalardan iborat bo'lgan) tomonidan bosib olindi, Turkiston Muxtoriyati hukumati tugatildi¹²⁸.

Turkiston Muxtoriyati qizil askarlar tomonidan ag'darib tashlandi. Qo'qon qonga botirildi. Qo'qonda tinimsiz uch kun davom etgan janglarda aholi beayov qirildi. Hech kimga shafqat ko'rsatilmadi. Shahar vayronaga aylandi. Turkiston Muxtoriyati atigi 72 kun umr ko'rdi xolos. Ammo mana shu qisqa vaqt ichidagi o'zgarishlar kelgusidagi ozodlik harakatlariga zamin bo'lib xizmat qildi.

1918 yil yanvar oyidayoq bolsheviklar Turkiston Muxtoriyatiga qarshi Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko'tarishgan edi¹²⁹.

Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi barcha aholini larzaga solgan edi. Aholining shafqatsizlarcha qirib yuborilishi, so'ngi bo'lgan voqealar natijasida ocharchilikning yuzga kelishi Sho'rolar hukumatiga nisbatan aholi o'rtasida keskin nafratni uyg'otdi. Endi mahalliy aholini ularning asl niyati nima ekanini bilardilar. Shu sababli ham Turkiston istiqlochlilari tomon yo'l olib, tobora ularning safini ko'paytirmoqda edi. Bu holatni ko'rib, bilib, sezib turgan Sho'rolar hukumati ham jim turgani yo'q. Ular ham yangi hiylanayranglarni payida edi. Bir paytlar kommunizmning dohiysi bo'lgan V.I.Lenin tomonidan aytilgan "Turkiston mustamlakachilikning eng yorqin namunasi"¹³⁰, so'zlari Sho'rolar hukumatining qon-qoniga singib ketgan edi. Shu sababli, nima bo'lgan taqdirda ham ular Turkistonni qo'ldan boy berishni istamas, aksincha RSFSR manfaatlariga xizmat qiluvchi o'lkaga aylantirishni maqsad qilgan edilar. Bu niyatlari esa "Biz har qanday muxtoriyatga qarshi emasmiz faqat burjuylar manfaatiga xizmat qiluvchi (Turkiston muxtoriyati singari) muxtoriyatga qarshimiz, xolos"¹³¹, degan g'oya bilan niqobladilar.

Turkiston Muxtoriyati hukumati ag'darib tashalgach, milliy taraqqiyparvarlar va istiqlochlilar qo'lga qurol olib, sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakatni boshlab yubordi. Ular mustaqillikni faqat qo'lga qurol yordamida qo'lga kiritilishiga umid bog'ladilar. Sovet hokimiyati yillarida "bosmachilar" deb qoralangan bu xalq farzandlari aslida istiqlochlilar edi¹³².

Xulosa. 1917-yilgi inqilobiy o'zgarishlar Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha hududlarda bo'lgani kabi, Turkiston o'lkasida ham tub ijtimoiy-siyosiy silkinishlarga sabab bo'ldi. Inqilob tufayli yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq, Turkiston ziyolilariga o'z milliy taqdirini belgilash yo'lida tarixiy imkoniyatni yaratdi. Jadidlar boshchiligidagi Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan Qo'qonda e'lon qilingan Turkiston Muxtoriyati – bu ozodlik sari tashlangan jasoratli qadam bo'lib, mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy uyg'onishning amaliy ifodasiga aylandi.

¹²⁸ A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi: — Toshkent : "Ma'naviyat", 2000. -146-149-bet.

¹²⁹ B.Eshov, A.Odilov. O'zbekiston tarixi II – jild. –Toshkent:,2015. –B.206.

¹³⁰ Majid Hasaniy. "Turkiston Bosqini" Toshkent: "Nur", 1992. –B.42.

¹³¹ N.Jo'rayev N, Sh.Karimov. O'zbekiston tarixi II kitob. Toshkent:2011. –B.84.

¹³² O.Normatov. O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O'zbekiston ijtimoi-iqtisodiy hayotiga ta'siri. Toshkent : "Tamaddun". 2022.-B.10.

Biroq, Sovet hokimiyati Turkistondagi bu siyosiy uyg'onish va muxtoriyat harakatini o'z manfaatlari uchun xavf sifatida qabul qilib, uni harbiy kuch bilan bostirdi. Sovetlarning diniy qadriyatlarga qarshi olib borgan siyosati, milliy madaniyat va mustaqillik g'oyalarini bostirishga urinishlari o'lkadagi qarshilik kayfiyatini yanada kuchaytirdi. Natijada, bosmachilik harakati kabi qurolli xalq harakatlari yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda Sovet hokimiyatining qaror topishi jarayoni mahalliy aholi uchun zo'ravonlik, diniy-ma'naviy qadriyatlarining toptalishi, milliy huquqlarning cheklanishi bilan kechdi. Shu bois, bu davr tarixda Turkiston xalqlari milliy ozodlik harakati tarixining fojiali, ammo ibratli sahifalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiston Muxtoriyati g'oyasi va u yo'lidagi kurashlar esa keyingi istiqloq harakatlariga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov Q. Turkiston qo'rboshilari. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 14.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. III kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 14, 74.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 17, 19.
4. Иноят Х.Ш. Победа Советской власти в Узбекистане. – Ташкент, 1967.
5. Cho'qay o'g'li M. Istiqloq jallodlari (1917 yil xotiralari) / Nashrga tayyorlovchi – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992. – B. 47.
6. Ulug' Turkiston gazetasi. 1917-yil 8-dekabr soni.
7. Туркестанский вестник gazetasi. 1917-yil 9-dekabr soni.
8. Rajabov Q. Turkiston muxtoriyati tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 102, 127, 137.
9. Jadid adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 9-fevral, 7-son.
10. Jadid adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 23-fevral, 9-son.
11. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a'zolari hayoti va taqdiri. – Toshkent: Bodomzor invest, 2021. – B. 15.
12. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 146–149.
13. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. II jild. – Toshkent, 2015. – B. 206.
14. Hasaniy M. Turkiston bosqini. – Toshkent: Nur, 1992. – B. 42.
15. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. II kitob. – Toshkent, 2011. – B. 84.
16. Normatov O. O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 10.